

## SUDLOVNING RAQAMLI EVOLYUTSIYASI: QIRG‘IZISTONDA “AQLLI” SUD TIZIMI QANDAY ISHLAYDI?

*Nusratilloeva Ra’no Muhsin qizi*

*Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti*

+99893 270-12-56

[rnusratilloeva@gmail.com](mailto:rnusratilloeva@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada Qirg‘iziston Respublikasining “aqli” sud tizimi, uning tarkibiy qismlari (sot.kg, act.sot.kg, AIS “Sot”) hamda ushbu tizimning huquqiy va texnik asoslari atroflicha yoritilgan. Tizimning “mikroservis” yondashuvi asosida qurilgani, kiberxavfsizlik choralari va “Tunduk” idoralararo ma’lumot almashish tizimi orqali boshqa davlat organlari bilan integratsiyalashuvi tahlil qilinadi. Shuningdek, sun’iy intellektning sud jarayonlaridagi o‘rni, onlayn mediatsiya va elektron ijro varaqalarining afzalliklari ko‘rsatib o‘tilgan. Maqola yakunida Qirg‘iziston tajribasidan kelib chiqib, O‘zbekiston sud tizimini rivojlantirish uchun “Aqli yordamchi”, Blokcheyn va “Hukumat buluti” (G-Cloud) kabi texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha aniq tashkiliy, huquqiy va texnik takliflar ilgari surilgan.

**Аннотация:** В статье подробно освещается “умная” судебная система Кыргызской Республики, её структурные компоненты (sot.kg, act.sot.kg, АИС “Сот”), а также её правовые и технические основы. Анализируется построение системы на базе “микросервисного” подхода, меры кибербезопасности и интеграция с другими государственными органами через систему межведомственного обмена данными “Тундук”. Также указаны роль искусственного интеллекта в судебных процессах, преимущества онлайн-медиации и электронных исполнительных листов. В завершении статьи, основываясь на опыте Кыргызстана, выдвигаются конкретные организационные, правовые и технические предложения по развитию судебной системы Узбекистана, такие как внедрение технологий “Умный помощник”, Блокчейн и “Правительственное облако” (G-Cloud).

**Abstract:** The article provides a comprehensive analysis of the “smart” judicial system of the Kyrgyz Republic, its structural components (sot.kg, act.sot.kg, AIS “Sot”), and its legal and technical foundations. The author examines the “microservice” approach of the system, cybersecurity measures, and its integration with other government agencies via the “Tunduk” interagency data exchange system. The role of Artificial Intelligence in judicial proceedings, the benefits of online mediation, and electronic writs of execution are highlighted. Based on the Kyrgyz experience, the article concludes with specific organizational, legal, and technical proposals for

modernizing Uzbekistan’s judicial system, including the implementation of “Smart Assistant” modules, Blockchain technology, and G-Cloud infrastructure.

Qirg‘iziston Respublikasining raqamli sudlov tizimi an’anaviy yagona platformadan farqli o‘laroq mikroservis yondashuviga asoslangan bir nechta ixtisoslashgan modullar majmuasidan tashkil topgan. Tizimning asosiy bo‘g‘inlari hisoblangan sot.kg axborot portali, sud qarorlari bazasi bo‘lgan act.sot.kg hamda sudyalar uchun yopiq AIS “Sot” tizimi o‘zaro integratsiyalashgan holda faoliyat yuritadi. Bunday tarqoq arxitektura kiberxavfsizlikni ta’minlash, xususan, sudning ichki maxfiy ma’lumotlarini ommaviy portallardan ajratish hamda tizimning bir qismi nosoz bo‘lgan taqdirda ham boshqa qismlarining barqaror ishlashini kafolatlash maqsadida tanlangan. Shuningdek, xavfsizlik chorasi sifatida tizimda geoblokrovka filtri o‘rnatilgan bo‘lib, u tashqi kiberhujumlarning oldini olish uchun xorijiy IP-manzillardan kirishni cheklaydi..

Tizimning amaliy samaradorligi uning keng qamrovli xizmatlarida namoyon bo‘ladi. Fuqarolar va advokatlar shaxsiy kabinet moduli orqali uydan chiqmasdan da’vo arizalarini elektron shaklda yuborishlari, ularning holatini maxsus trek-kodlar yordamida onlayn kuzatib borishlari mumkin. Shuningdek, videokonferensaloqa texnologiyalari masofadan turib sud majlislarida ishtirok etish imkonini yaratadi. Bu esa, ayniqsa, olis hududlarda yashovchi shaxslar uchun qulaylik tug‘diradi. Moliyaviy masalalar, jumladan, davlat bojlarini to‘lash jarayoni ham soddalashtirilgan bo‘lib, tizim tomonidan yaratilgan unikal QR-kodlar orqali to‘lovlarni bank ilovalarida bir necha soniyada amalga oshirish imkoniyati yo‘lga qo‘yilgan.

Yuqorida ta’kidlanganidek, tizim bir nechta platformalardan iborat bo‘lsa-da, fuqarolar va yuristlar uchun eng asosiy darchaga aylangan manba bu sot.kg portali hisoblanadi. Bu platforma orqali sud majlislari jadvalini ko‘rish, sud qarorlari bilan tanishish va ishning borishini onlayn kuzatish imkoniyati yaratilgan. Tizimning o‘ziga xosligi shundaki, u nafaqat rasmiy axborot berish, balki jamoatchilik uchun ochiq sud statistikasini yuritish vazifasini ham bajaradi.

Bu tizimning rivojlanish tarixiga nazar tashlasak, u bir necha bosqichli evolyutsiyani bosib o‘tganini ko‘ramiz. Dastlab 2010-yillarning boshlarida sud tizimini shaffoflashtirish talabi bilan oddiy ma’lumotlar bazasi sifatida shakllana boshlagan bo‘lsa, keyinchalik xalqaro tashkilotlarning texnik ko‘magi ostida to‘liq avtomatlashtirilgan tizimga aylantirildi. Ayniqsa, 2017–2019-yillarda Qirg‘izistonda sud-huquq islohotlari doirasida elektron sudlovga otish keskin tezlashdi va tizimga audio-video qayd etish hamda ishlarni sudyalar o‘rtasida inson omilisiz, avtomatik taqsimlash funksiyalari qo‘shildi. Jarayonning asosiy maqsadi sudlardagi korrupsiyani kamaytirish va qaror qabul qilish jarayonida ochiqlikni ta’minlash edi.

Mamlakatda sud tizimini raqamlashtirishning oliy huquqiy kafolati mamlakat Konstitutsiyasi bo‘lib, unda sud muhokamalarining ochiqligi qat’iy belgilangan. Bu

tamoyil yopiq sud amaliyotidan voz kechib, jarayonlarni jamoatchilikka elektron tarzda to‘siqsiz taqdim etish uchun asos bo‘ladi. Amaliy jarayonlar bevosita Fuqarolik protsessual kodeksi bilan tartibga solinib, sud majlislarida audio va video qayd etishni majburiy qilib belgiladi hamda arizalar va dalillarni masofadan taqdim etishni, chaqiruv qog‘ozlarini elektron yuborishni qonuniylashtirdi. Shuningdek, “Sudyalar maqomi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonun korrupsiyaning oldini olish maqsadida ishlarni sudyalarda o‘rtasida inson omilisiz tasodifiy taqsimlashni qat’iy belgiladi. Ushbu islohotlar 2019-2022 va 2023-2026-yillarga mo‘ljallangan davlat maqsadli dasturlari orqali moliyalashtirilib, barcha sudlarni yagona himoyalangan tarmoqqa ulash va qog‘oz arxivlarni raqamlashtirishni qamrab oladi.

Tizim foydalanuvchilari sudyalarda, kotiblar va IT-mutaxassislardan iborat ichki guruhga hamda fuqarolar, advokatlar va prokurorlarni o‘z ichiga oluvchi tashqi guruhga bo‘linadi. Platforma asosan beshta quyi tizimdan tashkil topgan bo‘lib, ular qatoriga sudyalarda uchun yopiq AIS “Sot” tizimi, ommaviy axborotlar beruvchi sot.kg portali, sud hujjatlarining ochiq reyestri bo‘lgan act.sot.kg, audio-video fiksatsiya moduli hamda fuqarolar murojaat qiladigan lk.sot.kg “Shaxsiy kabinet” portali kiradi. Aynan “Shaxsiy kabinet” orqali fuqarolar va advokatlar sudga bormasdan, elektron raqamli imzo yordamida da’vo arizalari va shikoyatlarni PDF formatida yuklashlari hamda jarayonni maxsus trek-kod orqali onlayn kuzatishlari mumkin. Tizim uzoq hududlardagi shaxslarga videokonferensaloqa orqali sud majlislarida ishtirok etish imkonini ham yaratgan.

Moliyaviy masalalar to‘liq avtomatlashtirilgan bo‘lib, davlat boji yoki jarimalarni to‘lash uchun tizim avtomatik tarzda unikal QR-kod yaratadi va to‘lov bank ilovasi orqali amalga oshirilgach, ijro idoralari bilan ma’lumot almashinib fuqaroga qo‘yilgan cheklovlar zudlik bilan bekor qilinadi. Tizimning eng katta ustunligi uning “Tunduk” idoralararo tarmog‘i orqali o‘nlab davlat idoralari bazalariga ulanganligidir. Bitta PIN yoki INN raqamini kiritish orqali tizim Aholi reyestridan passport ma’lumotlarini, Adliya vazirligidan yuridik shaxslar holatini, Advokatlar bazasidan litsenziyalarni, Kadastr idorasidan mulk ma’lumotlarini hamda Ichki ishlar va Chegara xizmatidan shaxsning qidiruvdagi yoki sudlangani holatini avtomatik tortib oladi.

Buning natijasida AIS “Sot” sudyalarda uchun haqiqiy intellektual yordamchiga aylanib, hujjatlarni aqlli elektron shablonlar orqali avtomatik to‘ldirish va ularni elektron imzo bilan raqamli arxivga saqlash imkonini beradi. Sud chaqiruvlarini shakllantirish va yuborish ham to‘liq avtomatlashtirilgan bo‘lib, sudya majlis vaqtini belgilashi bilan tizim avtomatik ravishda elektron chaqiruv qog‘ozini yaratadi va fuqaroning shaxsiy kabinetiga hamda telefoniga rasmiy SMS-xabarnoma sifatida yuboradi. Ushbu tezkor jarayon xatlarning kunlab kutilishiga va asossiz sud qolib ketishlariga butunlay chek qo‘yadi.

Qirg‘izistonning elektron sudlov tizimi jarayonlarni soddalashtirish va inson omilini kamaytirish maqsadida qator innovatsion yechimlarni o‘zida mujassam etgan. Xususan, sud chaqiruvlari avtomatik tarzda shakllantirilib, foydalanuvchining shaxsiy kabinetiga va telefoniga rasmiy yuridik kuchga ega bo‘lgan SMS-xabarnoma sifatida yuboriladi. Sud qarorlari ham to‘liq raqamlashtirilgan bo‘lib, elektron imzo bilan tasdiqlangan hujjatlar maxsus QR-kod orqali qandayligini tekshirish imkonini beradi va an‘anaviy qog‘oz nusxa bilan bir xil yuridik kuchga ega hisoblanadi. Tizim orqali advokatlarni ishga masofadan birlashtirish mexanizmi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, ularning ishonchnomalari va litsenziyalari idoralararo bazalar orqali soniyalarda tasdiqlanadi. Shuningdek, nizolarni sudgacha hal etishni qo‘llab-quvvatlovchi onlayn mediatsiya xizmati ham joriy etilgan; unda taraflar videoaloqa orqali kelishuvga erishsa, bitim sudya tomonidan elektron tasdiqlanib, qat‘iy majburiy kuchga ega bo‘ladi.

Tizimning eng ilg‘or yo‘nalishlaridan biri bu sun‘iy intellektning sudyaga “raqamli maslahatchi” sifatida ko‘maklashishidir. Ushbu texnologiya o‘xshash ishlar statistikasini chiqarib berish, sud majlislarida nutqni real vaqtda matnga aylantirib stenogramma yozish va turli ma‘lumotlar bazalarini tahlil qilib xulosalar tayyorlash orqali kotiblar va sudyalarning ish vaqtini keskin tejaydi. Qolaversa, tizimdagi sun‘iy intellekt millionlab yakunlangan ishlarni tahlil qilish orqali nizo natijasini oldindan bashorat qila oladi va bu fuqarolarni asossiz sudlashishdan asraydi. Fuqarolar uchun yaratilgan yana bir qulaylik shundaki, tizim ariza berishda sudlovliyligni o‘rnatilgan algoritmlar yordamida o‘zi avtomatik aniqlab, arizani to‘g‘ri manzilga yo‘naltiradi. Tizimga integratsiya qilingan elektron kalkulyator esa davlat bojini aniq hisoblab, yaratilgan unikal QR-kod orqali mobil to‘lovni zudlik bilan amalga oshirish imkonini beradi.

Ochiqlik va shaffoflikni ta‘minlash maqsadida yaratilgan “Elektron ish jildi” moduli taraflarga barcha hujjatlar, ekspertiza xulosalari va dalillar bilan masofadan turib, real vaqt rejimida tanishish imkoniyatini taqdim etadi. Tizimga yuklangan har bir raqamli dalil aniq vaqt tamg‘asi bilan elektron muhrlanib, ma‘lumotlarni qalbakilashtirish xavfini yo‘qqa chiqaradi. E‘tiborli jihati shundaki, bu jarayonlarning barchasi nafaqat veb-portal, balki maxsus mobil ilova orqali ham to‘liq boshqarilishi mumkin. Ilova orqali foydalanuvchilar push-bildirishnomalar qabul qilishi, hujjatlarni tekshirishi va istalgan joydan turib sud jarayonlariga aralashishi mumkin. Yakunlangan ishlar hujjatlari esa avtomatik tarzda kuchli qidiruv filtriga ega jonli elektron arxivga o‘tkazilib, odil sudlov tarixining raqamli xavfsizligi va ochiqligi to‘liq ta‘minlanadi.

Bugungi kunda barcha yangi sud qarorlari qabul qilingan zahoti raqamli formatda arxivga tushadi, eski qog‘oz hujjatlar esa bosqichma-bosqich skanerlanib bazaga o‘tkazilmoqda. Arxiv tizimi juda kuchli qidiruv filtrlariga ega bo‘lib, foydalanuvchilar yoki huquqshunoslar ko‘p yillar oldingi ishlarni sudya ism-sharifi, ish raqami yoki kalit so‘zlar orqali bir necha soniyada topishlari mumkin. Xulosa qilib aytganda,

prognozlash tizimi odamlarni ortiqcha xarajatdan asraydi, elektron dalillar adolatni ta'minlaydi, raqamli arxiv esa sud tizimining ochiqligi va davomiyligini to'liq kafolatlaydi.

Elektron sudlov ekotizimi nafaqat sud zalidagi jarayonlarni, balki qaror qabul qilingandan keyingi ijro bosqichini ham to'liq raqamli relslarga o'tkazgan mukammal tizimdir. Ushbu raqamli zanjirning eng muhim halqasi – real vaqt rejimida avtomatik ijro varaqalarini shakllantirish va ularni ijroga yo'naltirish tartibidir. Bugungi kunda sud qarori qonuniy kuchga kirgan soniyada, AIS “Sot” tizimi inson aralashuvisiz elektron ijro varaqasini yaratadi hamda sudyaning raqamli imzosi bilan tasdiqlangan ushbu hujjat “Tunduk” tizimi orqali darhol majburiy ijro byurosiga yuboriladi. Bu esa qog'ozbozlik va pochta xarajatlariga chek qo'yib, qarzni undirish yoki taqiqlarni qo'llash jarayonini bir necha daqiqaga qisqartiradi, natijada javobgarning o'z mulklarini yashirib ulgurish imkoniyatini butunlay yo'qqa chiqaradi.

Sud protsessining ichki ochiqligini ta'minlashda sun'iy intellekt asosidagi nutqni tanish moduli orqali majlis stenogrammasini avtomatik shakllantirish muhim inqilobiy yangilik hisoblanib, u kotibning ishini yengillashtiradi va xatoliklarga barham beradi. Shuningdek, elektron sud tizimi “Tunduk” portali orqali Ichki ishlar, Adliya, Soliq, Chegara xizmati va banklar bilan uzviy integratsiya qilingan bo'lib, sudga mulk va harakatlanish ma'lumotlarini bir zumda olish imkonini beradi. Qolaversa, sud jarayonida jinoyat alomatlari aniqlanganda, sudya tizim orqali to'g'ridan-to'g'ri prokuraturaga elektron xabar yuborishi va uning ijrosini real vaqtda kuzatib borishi mumkin, bu esa idoralararo byurokratiyaga chek qo'yib, jinoyatlarni “issiq izidan” fosh etishga xizmat qiladi.

O'zbekiston sud tizimini faol intellektual ekotizimga aylantirish maqsadida Qirg'iziston tajribasiga tayangan holda qator strategik takliflar ilgari suriladi. Tashkiliy jihatdan sudyalarga tahliliy maslahatlar beruvchi va stenogramma yurituvchi “Aqlli sud yordamchisi” modulini joriy etish, barcha davlat idoralari bazalarini “Yagona darcha” tamoyilida real vaqt rejimida bog'lash hamda barcha xizmatlarni o'zida jamlagan “Mobil odil sudlov” universal ilovasini yaratish zarur. Huquqiy sohada elektron yozishmalar va tranzaksiyalar kabi raqamli dalillarni to'liq qonuniylashtirib, ularga xesh-kod birlashtirish, avtomatik elektron ijro varaqalarini qog'oz hujjatga tenglashtirish va sun'iy intellekt xulosasiga rasmiy maqom berish, shuningdek, muayyan ishlarda onlayn mediatsiyani majburiy protsessual bosqich etib belgilash taklif etiladi. Texnik tomondan esa axborot oqimiga bardosh berish va uzluksizlikni ta'minlash uchun tizimni an'anaviy serverlardan G-Cloud (Hukumat buluti) texnologiyasiga o'tkazish, hujjatlardagi matnni avtomatik o'qiydigan OCR modullarini integratsiya qilish hamda ma'lumotlar o'zgarimasligini 100 foiz kafolatlash uchun Blokcheyn texnologiyasi va “Zero-Trust” arxitekturasini joriy etish o'ta muhimdir.

Ushbu islohotlarning amaliyotga joriy etilishi natijasida sudyalarning qog‘ozbozlikka sarflaydigan vaqti 60-70 foizga, elektron byurokratiya esa 90 foizga qisqarishi prognoz qilinmoqda. Avtomatik ijro varaqalari sud qarorlarining real ijrosini 95-98 foizga ko‘taradi, onlayn mediatsiya tizimi esa nizolarning salmoqli qismini sudgacha hal etib, davlat byudjeti xarajatlarini tejaydi. Eng muhimi, Blokcheyn texnologiyasi sud arxiviga aralashuv va hujjatlarni soxtalashtirish ehtimolini mutlaq nolga tushiradi. Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, ilgari surilgan takliflar davlat va jamiyat o‘rtasidagi adolat ko‘prigini daxlsiz poydevorga ko‘chirish strategiyasi bo‘lib, mavjud salohiyatni innovatsion texnologiyalar bilan birlashtirish orqali O‘zbekiston qisqa fursatda butun Markaziy Osiyoning chinakam raqamli odil sudlov markaziga aylanish imkoniyatiga ega.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

#### **I. Normativ-huquqiy hujjatlar**

1. Qirg‘iziston Respublikasining Konstitutsiyasi.
2. Qirg‘iziston Respublikasining “Sudyalar maqomi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonuni.
3. Qirg‘iziston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi.

#### **II. Davlat maqsadli dasturlari**

4. 2019–2022-yillarda Qirg‘iziston Respublikasi sud tizimini rivojlantirish davlat maqsadli dasturi.
5. 2023–2026-yillarga mo‘ljallangan Qirg‘iziston Respublikasi sud tizimini rivojlantirish davlat maqsadli dasturi.

#### **III. Rasmiy elektron platformalar va axborot tizimlari**

6. Qirg‘iziston Respublikasi sudlarining rasmiy axborot portalini – **sot.kg**.

#### **IV. Xalqaro tashkilotlar materiallari**

7. AQSh Xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID), Xalqaro taraqqiyot huquqi tashkiloti (IDLO) hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) Qirg‘izistonda sudlovni raqamlashtirish loyihalari bo‘yicha hisobotlari.

#### **V. Ilmiy adabiyotlar va maqolalar**

8. Semenov N. S. Legal problems of establishing information relations in the electronic justice of the Kyrgyz Republic // Вестник Кыргызско-Российского Славянского университета. – 2022. – Т. 22. – №. 3. – С. 104-110. (DOI: 10.36979/1694-500X-2022-22-3-104-110).